



## HALIMA XUDOYBERDIYEVA IJODIDA VATAN, ONA TUYG'ULARINING O'ZIGA XOS TAASVIRI.

**Saydullayeva Dinora Sidiq qizi**

Samarqand davlat pedagogika instituti

o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3- bosqich talabasi

**Ilmiy rahbar: Usarova Laylo**

o'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Halima Xudoyberdiyeva she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari, she'rlardagi ta'sirchanlik, shoira ijodidagi o'xshatishlar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek maqolada shoira ijodidan namunalar keltiriladi.

**Tayanch so'zlar:** Vatan tuyg'usi, ayol qalbi, tabiat tasviri, jasorat, sadoqat, she'rlar, to'plam

### **Kirish:**

Yangi davr o'zbek adabiyotida o'chmas iz qoldirgan shoirlarimizdan biri bu Halima Xudoyberdiyeva.

Halima Xudoyberdiyeva she'riyatining mavzu ko'lami keng, teran. Uning she'rlarida ona Vatan ota- ona, ayol, tabiat mavzulari ustuvorlik qiladi. Halima Xudoyberdiyeva ruhiyati bu ayol qalbi matonati, yashash uchun kerashdagi jasorat. U faqat o'xshatish emas. Bu she'riyat ayol qalbi nidosi bo'lib jarang sochadi.

U bag'irdor she'rlari barobarida, hayotda bir ruhoniy iqlim ham yarata olgan ijodkordir. Halima Xudoyberdiyeva ijodida chaqmoq kabi chaqnagan, momaqaldiraqdek gumburlagan, seldek toshib kelgan she'rlar talaygina. Lekin shoira mana shunday she'rlari orasida ayol muhabbati, uning qudrati, nozik qalb egasi ekanligini ko'rsatuvchi she'rlar alohida mavqega ega. Shulardan "Muqaddas ayol" nomli she'ri bo'lib unda ayolning naqadar buyuk zot ekanligi ta'kidlangan.

Oshiqlaring poyingga gul otib ham bo'ldi

Xilvatlarda labingdan bol totib ham bo'ldi

Va bu haqda kimlargadir sotib ham bo'ldi



Sen baribir muqaddassan muqaddas ayol

Halima Xudoyberdiyeva o'zbek adabiyotiga ilk bor 1968-yilda chop etilgan " Ilk muhabbat" she'riy to'plami orqali kirib kelgan bo'lib, o'sha davridayoq o'zining poetik ovozi, yurakka yaqin samimiy ohangi va badiiy obrazlaridagi hayotiylik bilan ajralib turdi(1)

Shundan so'ng shoironing "Oq olmalar", "Suyanch tog'larim", "Chaman", "Issiq qor", "Sadoqat", "Muqaddas ayol", "Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor", "Hurlik o'ti", "Yuragimning og'riq nuqtalari", "To'marisning aytgani", "Saylanma " va boshqa ko'plab she'riy to'plamlari nashr etilgan.

Tirqirab kelarkan tegsa bariga

Yo'ildan adashib qumlar qaytdilar

Tegib- tegmay o'tsa yaproqlariga,

Janona daraxtlar hushdan ayrimlar.

Ushbu parcha ham Halima Xudoyberdiyeva ijodidan o'rin olgan bo'lib, " Kechagi shamol" deb nomlangan she'rdan olingan. Bu misralarda tabiat tasviri ifodalangan bo'lib "janona daraxtla'r yo'lidan adashgan qumlar kabi musavvirona tasvir uslublaridan foydalanilgan.

Shoironing "Dorillamon kunlar keldi"nomli she'rida esa qiyinchiliklar, kurashlar va og'ir kunlar tugab hayotda baxtli, osoyishta davrning boshlanishini ko'rsatadi.Qolaversa, bu she'rda "Onaginam! Dorillamon kunlar keldi... misrasi orqali ona va qizning o'ziga xos qiyinchiliklari, orzularining ro'yobga chiqish istagi va ko'proq erkinlikka erishish orzusi haqida so'z yuritiladi.

Onaginam!

Dorillamon kunlar keldi, shafaqlari ol,

Qayon boqsang, shaylanishar va sozlashar tor.

Olcha gulin ko'zlaringga surtasan behol

" Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor".

O'zbek she'riyatiga o'zining tamal toshini qo'ygan yana bir ustoz shoiramiz Zulfiyaxonim Halima Xudoyberdiyeva ijodiga quyidagi ta'rifni bergan: " Halima Xudoyberdiyevaning poetik tili- bu beg'ubor iboralar, tabiat singari saxiy obrazlar orqali tuyg'ularini ifodalovchi uslub egasi".



### **Xulosa.**

Halima Xudoyberdiyevaning lirik qahramoni publitsistik nutq, yurak nidosi va da'vat orqali millatsevarlik, insonparvarlik ruhini ifoda etadi.

Shoiraning she'riyatida Vatan mustahkamligi, shaxs erki va xalq ma'naviy yuksalishi eng asosiy badiiy g'oyalardir. Bu qadriyatlarni keyingi avlodlarga yetkazish shoiraning ijodiy niyatidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Adabiyotshunoslikka kirish. T. Boboyev o'qituvchi, 1995;
2. H. Xudoyberdiyeva "Chaman", she'riy to'plami. B, -36.
3. Saylanma, H. Xudoyberdiyeva, "Sharq" 2000
4. Bu kunlarga yetganlar bor, H. Xudoyberdiyeva, Toshkent